

KOGNITIV TADQIQ METODOLOGIYASI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

E-mail: utanovavazira@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda zamonaviy lingvistikaning asosiy yo‘nalishidan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslikning tadqiq metodologiyasi, ya’ni kognitologiyaning asl mohiyati, u orqali yuzaga keladigan o‘zgarishlar, fanda tutgan o‘rni, olimlar tomonidan tadqiq qilinishi vas hu kabi masalalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kognitiv, semantik-sintaktik, lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, psixolingvistika, konsept, diaxroniya, voqelik, tushuncha.

COGNITIVE RESEARCH METHODOLOGY

Abstract: In this article, the research methodology of cognitive linguistics, which is one of the main directions of modern linguistics, that is, the true essence of cognitology, the changes that occur through it, its place in science, research by scientists, etc. is talked about.

Key words: cognitive, semantic-syntactic, linguocultural, pragmatic, sociolinguistic, psycholinguistics, concept, diachrony, reality, concept.

Ma’lumki, dunyo tilshunoslida matnga dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Unga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini,

milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarning lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antropotsentrik yo'nalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Kognitologiya o'z mohiyatiga ko'ra semantika bilan uzviy bog'liqdir. A.V.Kravchenkoning fikriga ko'ra "... kognitiv tilshunoslik o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi". Jahon tilshunoslida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili sohiblarining "tafakkur grammatikasi"ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab tadqiqotchilarining e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaning etakchi yo'nalishlari hisoblanadi. Biz ham bu fikrni e'tirof etgan holda psixolingvistika sohasini ham shu qatorga kiritish lozim, degan fikrni ilgari surish tarafdomiz. Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Yana shu narsani ta'kidlash lozimki, tadqiq obyektimiz bo'lgan badiiy matn bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. "Psixolingvistika asoslari" kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta'kidiga ko'ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi antropotsentrik yo'nalishning yadrosini tashkil etadi. Shu boisdan mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko'ra, ya'ni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari asosida tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Badiiy uslubda yaratilgan o'zbek tilidagi nasriy va she'riy matnlar tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. O'zbek tilidagi matnlarning

kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvoturkologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin konsept hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, uning hozirgi vaqtidagi izohi tushuncha terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini olib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. «...avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyati, qirrasi, tomoni aniqlanadi, natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to'planadi, saralanadi; ...aqliy dialektik tahlil usuliga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi». Ana shu aqliy tahlil (mantiqiy-ruhiy harakatlardagi faoliyat) ni amalga oshirishning bir necha bosqichlari qator manbalarda sanab o'tilgan. Ularda berilishicha aqliy tahlilga qaratilgan faoliyatda dastlab ma'lum bir obyekt boshqa obyektlar qatoridan ajratib olinadi. Bunda, albatta, uning farqlovchi belgilari e'tiborga olinadi. Farqlovchi belgilar asosida boshqa obyekt bilan qiyoslash harakati amalga oshirilib, xotirada shu obyektga oid hissiy ramz shakllanriladi. Bu ramzning lisoniy xotiradagi boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari qidiriladi. Eng so'nggi bosqichda esa voqelikning bilishning muhim bosqichi umumlashtirish amalga oshiriladi. Bu faoliyatlarning barchasi ob'ekt haqida tushuncha shakllanishiga xizmat qiladi. Mantiqiy faoliyat natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan

umumlashib kognitiv lingvistika tarmoqlarida asosiy figura sifatida o'rganilayotgan konseptning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so'z bo'lib, (consept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashtirib yuborila boshlangach, uning tom ma'nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Lingvistik ensiklopedik lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "konsept bu – "so'z ma'nosi" kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no - til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi".

Konseptni aniqlash tadqiqotchilar tomonidan turli usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. So'z etimonini aniqlash yordamida. Bunda konseptning yozuvgacha bo'lgan tarixini aniqlash yo'li tutiladi.
2. Asos guruhlarni o'rganish, ya'ni berilgan etimondan hosil bo'lgan so'zlar guruhini o'rganish.
3. Diaxroniyada yasama so'zlarni qo'llashni o'rganish orqali, ya'ni epedigmatik bog'lanishlarni o'rganish.
4. Berilgan so'zlardan asosiy qo'llanilayotganlarini sinxron darajada o'rganish. Bunda sintagmatik bog'lanishlar o'rganiladi.
5. Tahlil qilinayotgan so'z – konseptning paradigmatic bog'liqliklarini o'rganish.
6. Berilgan so'zni boshqa tildagi aynan (yoki shunga yaqin) so'z konsept bilan taqqoslash.

Sanab o'tilgan usullar, shuningdek, olingan material va ekstrolingvistik omillarni sintezlash orqali tahlil qilinayotgan so'zning milliy-madaniy spesifikasi hamda shu bilan bog'liq holda tahlilga tortilayotgan konseptning milliy-madaniy spesifikasini aniqlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax: Sangzor, 2006. -B.28.
2. Demyankov V.Z. Когнитивная цемантия. Краткий словарь когнитивных терминов.-М.:1996.
3. A.Primov. X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. -Urganch, 2019
4. Utanova V.M. Tilni lingvokognitiv o‘rganish muammolari. Young academic Journal, 1, 23-26.
5. Utanova V.M “The Origin of Cognitive Linguistics and the Specificity of Linguistic Knowledge” The Peerian Journal, 5, 116–121. Retrieved from <https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/97>